

Ona sog'ligi bola salomatligi garovidir.

Teshaboeva Feruza Raximovna

Muqimi nomidagi Qo'qon Davlat pedagogika instituti

Inklyuziv ta'lim kafedrasi dosenti,(PhD)

Qo'qon, O'zbekiston

**Eminjonova Vaziraxon Abdulaziz qizi
Ergasheva Feruzaxon Ixtiyor qizi
Erkaboyeva Dilnuraxon Damirjon qizi
Mamatova Dinoraxon Ulug'bek qizi**
Maxsus pedagogika (Surdopedagogika)
yo'nalishi 2 bosqich talabalari

Annotation

Ushbu maqolada nogironlikni keltirib chiqaruvchi sabablar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Xususan, onanang xomiladorlik davrining nomaqbul kechishi oqibatida turli nuqsonlarning kelib chiqishi va ularni oldini olish choralarini borasida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: dori vositalari, mexanik ta'sirlar, kimyoviy ta'sirlar, atrof-muhit ta'siri, alkogol, chekish, giyohvand moddalar, ota-onalar, bola, nuqson.

Аннотация

В данной статье представлена информация о причинах инвалидности. В частности, задумывалось о возникновении различных пороков и мерах их предотвращения в результате неблагоприятного течения беременности матери.

Ключевые слова: наркотики, механическое воздействие, химическое воздействие, воздействие окружающей среды, алкоголь, курение, наркотики, родители, ребенок, дефект.

Abstract

This article provides information about the causes of disability. In particular, it was thought about the origin of various defects and the measures to prevent them as a result of the unfavorable course of the mother's pregnancy.

Key words: drugs, mechanical effects, chemical effects, environmental effects, alcohol, smoking, drugs, parents, child, defect.

E'tirof etish joizki, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar bugungi kunga kelib o'z natijalarini ko'rsatmoqda. SHunisi e'tiborliki, bo'lajak onalarimizning salomatligini muxofaza qilish asnosidagi islohotlar samarasi o'laroq, O'zbekistonda onalar o'limi 3,1 barobar, go'daklar o'limi 3,2 barobar, "Ona va bola skriningi" dasturining amalga oshirilishi natijasida nuqsonli bolalar tug'ilishi 2000 yildan buyon 1,8 martaga kamaydi. Bu barchasi yurtimizda islohotlarni oqilona olib borilayotganidan dalolatdir. YUrtboshimizning o'z ma'ruzalarida ona va bola

salomatligi haqida kuyunib gapurishlari bejiz emas, chunki insoniyat bugungi kunda o'zi va bolalarida tabiatdagi salbiy omillar ta'sirini his qilmoqda. Bu salbiy omillarni katta insonlarga nisbatan homilaga nisbatan ta'siri xavfliroqdir. Quyida og'ir nutqiy nuqson sanalgan yuqori lab va tanglayda kuzatiladigan yoriqliklarning kelib chiqish sabablariga to'xtalib o'tmoqchimiz. Yuqori lab tanglayning tug'ma kemtiklari avvallari "quyon lab" va "bo'ri tanglay" nomi bilan atalgan. Kasallikning kelib chiqish sabablari dunyo miqyosida o'rganilmoqda. Masalan, Rossiya Federatsiyasida har bir 500.000 ta chaqaloqqa 1ta tug'ma kemtik anomaliyasi to'g'ri kelmoqda. Shulardan 75% bola yuzdagি kemtik bilan tug'iladi, ota-onada esa sog'lom. Nimaga? Sabablari har xil. Aniq bir sababni topish qiyin. Hozirgi davrgacha olib borilgan tadqiqotlarda aniqlanishicha bunday anomaliyalarning kelib chiqish sabablari ikki guruhga bo'linadi:

1. Atrof-muhit ta'siri.

- a) Homila ichi infeksiyasi. Homila uchun eng xavfli infeksiyalarga quyidagilar kiradi: sitomegalovirus, gerpesning I va II tiplari, toksoplazmoz, qizilcha, gripp, virusli gepatit, xlomidoz, sifiliz, mukoplazmoz, jinsiy yo'l bilan yuquvchi infeksiyalar.
- b) Kimyoviy ta'sirlar. Anil bo'yoqlari, neft mahsulotlari, sintetik kauchuk, plastmassa ishlab chiqarishda qo'llaniladigan mahsulotlar, viskoza tolalari.

V) Fizik ta'sirlar: ionlashgan radiatsiyalar, ishlab chiqarish binosidagi yuqori harorat,dori vositalari.

- d) Dori vositalari. Foli kislotasi , vitamin A, kartizon gormoni yetishmovchiligi, barbituratlar, sitostatiklar miqdori oshib ketishi. Ularning terotogen ta'sirlari homilada kemtik nuqsonlarni yuzaga kelishidagi sababi aniqlangan.
- e) Alkogol, chekish va giyohvand moddalar iste'mol qilishi. Bo'lajak ota-onalar bularning homilaga ta'siri haqida o'yab ham ko'rishmaydi. Chekuvchi onadan kemtik nuqsonlar bilan farzand tug'ilishi 25% ga yuqoriligi tasdiqlangan.

2. Irsiy faktorlar. Aholi o'rtasida tug'ma lab va tanglay kemtigi bilan bolalarning tug'ilishi 0.002%ni tashkil qiladi. Agar ota-onalardan birida patologiya bo'lsa, bиринчи farzand shunday nuqson bilan tug'iladi va keying farzandning ana shunday anomaliya bilan tug'ilish ehtimoli 2-2.5%ni tashkil qiladi. Agar oilada oila a'zolaridan 2 kishida shu patologiya bo'lsa kasallik namoyon bo'lishi 13-14%ni tashkil qiladi. Agar ota-onada va bir nafar farzandda tug'ma nuqson qayd etilsa keyingi farzandda nuqson bilan tug'ilishi 20-50%ni tashkil qiladi. Irsiy sindromlarga diqqatimizni qaratishimiz kerak. Irsiy sindrom nima? Bu avloddan avlodga o'tuvchi ma'lum bir tug'ma nuqsonlardir. Yuqori lab va tanglay kemtigi sindromlari soni 300dan ortiq. Shuning uchun shu turdag'i anomaliya bilan farzand tug'ilsa genetiklar maslahati kerak bo'ladi. Ota-onalar farzandining kasalligi to'g'risida keying homiladorlik va profilaktik chora-tadbirlar to'g'risida bilishi kerak. Nuqsonning belgilariga qarab yuzni ko'ndalang kemtigi, qulqoldi o'simtalari, qulq suprasi nuqsoni, yuqori lab va tanglay kemtigi, tug'ma pastki lab oqma yarasi borligi bolada irsiy sindrom borligidan dalolat beradi. Bunday hollarda genetiklar maslahati zarur hisoblanadi.

Ultra tovushli tekshiruvda bolaning holati haqida to'liq ma'lumot olish mumkin. 12-haftaning oxiriga borib homilaning yuz qismi to'liq rivojlanib bo'ladi. Shuning uchun homiladorlikning 11-12-haftasi UTT uchun optimal muddat hisoblanadi.

Irsiy sindromlarni homilada bor-yo'qligini aniqlash uchun xarlon vorsinkalarini biopsiya qilib xromosoma to'plami tekshiriladi. Bu tekshirishlar akusher-ginekolog va genetik mutaxassislar tavsiyasiga ko'ra o'tkaziladi. UTTni o'tkazishning maqsadi homila rivojlanishini va homilada nuqsonlar bor-yo'qligini aniqlash, shuning uchun optimal o'tkazish vaqt 11-12 va 23-24 haftalardir. Bugungi kunda bu tekshiruvlar 3 o'lchamli tasvirda ham o'tkazilmoqda. Bu tekshiruvlarning aniqligini oshiradi. Boladagi har qanday anomaliyalarning oldini olishning negizida oilani to'g'ri tashkil etish yotadi.

Bular nimalardan iborat?

- Ayol uchun 20-28 yosh eng maqbul tug'ish yoshi hisoblanadi.
- Barcha yuqumli kasalliklarni homiladorlikkacha davolash
- Er-xotinni homiladorlikkacha sog'lomlashtirish
- Barcha zararli odatlardan homilador bo'lguncha voz kechish
- Ishlab chiqarishdagi zaxarli faktorlarning ta'siridan cheklanish, homiladorlik davrida o'z bilganicha dori vositalaridan foydalanmaslik.
- Homiladorlik davrida doimiy ravishda tibbiyot hodimlari nazoratida bo'lish , kerakli tahlillardan va tekshiruvlardan o'tish
- Foliy kislotasi saqlovchi vitaminlarni homiladorlikkacha va homiladorlikning birinchi 3 oyida qabul qilish.

Rinolaliya xillarini aniq bilib olish uni bartaraf etishning yo'llarini to'g'ri belgilab olishga imkon beradi. Uning xillarini aniq ajratmay turib chora ko'rildigan bo'lsa, bu bolaga foya berishi o'mniga zarar keltirishi mumkin. Bunday bolalardagi talaffuz kamchiliklarini bartaraf etish va bu sohada samarali usullar ishlab chiqish masalalalari zamonaviy logopediya sohasida muxim o'r'in tutadi, bunday talaffuz kamchiliklarini korreksiyalash va bartaraf etish muammolari esa eng dolzarb muammolardan biriga aylandi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. "Logopediya" – M.Ayubova 2014
2. Feruza, Teshabaeva, Mahmudova Madina, and Yuldasheva Dilbar. "The essence of inclusive education in developed countries." *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol 8.1 (2020).
3. Rakhimovna, Teshaboeva Feruza. "Teaching subjects in higher education on the basis of innovative technologies." *Science Promotion* 1.2 (2023): 98-104.
4. Teshaboeva, Feruza Raximovna. "Literacy education of speech impaired children as a pedagogical psychological problem." *Confrencea* 5.05 (2023): 299-302.
5. Rakhimovna, Teshaboeva Feruza. "Teaching of sciences in higher education on the basis of innovative technologies." *Asian Journal of Multidimensional Research* 11.12 (2022): 141-147.
6. Raximovna, Teshaboeva Feruza. "O 'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIMNING RIVOJLANISHI VA ISTIQBOLLARI." QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI (2023): 873-875.
7. Feruza, Teshaboyeva. "INKLYUZIV TA'LIMNING O'ZBEKISTONDAGI RIVOJLANISHI." QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI (2023): 546-548.

8. Rahimovma, Teshaboeva Feruza, and Usmonjonova Saodatkhan Mirzakhamdamovna. "WAYS TO IMPROVE SPEECH ABILITIES OF CHILDREN WITH INTELLECTUAL DISABILITIES." (2023).
9. Rakhimovna, Teshaboeva Feruza, and Sadiqova Munavvarkhan. "PECULIARITIES OF THINKING OF CHILDREN WITH SPEECH DEFECTS." (2023).
10. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhon, and Rustamova Feruzabanu. "CONTRIBUTION OF CHARLES MIKHAIL EPE TO THE EDUCATION OF DEAF CHILDREN." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.3 (2023): 563-566.
11. O'ghiloy, Rakhimova Khurshidakhon Sadikovna Kurbanova. "CHILDREN WITH LOCAL MOVEMENT DEFECTS." *Confrencea* 3.03 (2023): 226-230.
12. Raximova, Xurshidaxon. "NATIONAL AND FOREIGN ADVANCED TRENDS IN HIGHER EDUCATION EFFICIENCY IMPROVEMENT." *JOURNAL OF NORTHEASTERN UNIVERSITY* (2022).
13. Sadikovna, PhD Rakhimova Khurshidakhon, and Nabiyeva Umidakhan. "ORGANIZING SOCIAL WORK ACTIVITIES OF STUDENTS WITH HEARING PROBLEMS." (2023).
14. Sadikovna, PhD Rakhimova Khurshidakhon, and Odilova Rislig'oy. "PROBLEMS OF PREPARING HIGH SCHOOL STUDENTS WITH HEARING DEFECTS FOR FAMILY LIFE." (2023).
15. Sadikovna, PhD Rakhimova Khurshidakhon, and Sharafuddinova Zuhra. "FORMATION OF MATHEMATICAL CONCEPTS OF CHILDREN WITH HEARING DEFECT USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES." (2023).
16. Komiljon, Raximova Xurshidaxon Sadikovna Sattarova Kamola. "PEDAGOGICAL AND EDUCATIONAL SYSTEM OF EDWARD SEGEN IN SPECIAL PEDAGOGY." *Confrencea* 3.03 (2023): 63-67.
17. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhon. "CORRECTIONAL AND PEDAGOGICAL WORK SYSTEM OF AUDITORY-SPEECH REHABILITATION OF CHILDREN WITH COCHLEAR IMPLANTS." *International Journal of Early Childhood Special Education* 14.6 (2022).
18. Sobirkhonovna, Mahmudova Madina. "THE IMPORTANCE OF THE USE OF PROJECT TECHNOLOGY IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF STUDENTS IN THE PROCESS OF INDEPENDENT LEARNING." *EURASIAN EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION* (2020): 29.
19. Sobirxonovna, Maximova Madinaxon. "GENEALOGY OF SCHOLARS AFTER THE 15TH CENTURY IN THE STUDY OF SPEECH DEFICIT." *Confrencea* 11.11 (2023): 21-25.
20. Sobirxonovna, Maximova Madinaxon. "The genealogy of thoughts of the manifestations of ancient antiquity in the study of the speech deficit of dislaliya." *Confrencea* 11.11 (2023): 17-20.
21. Sobirkhonovna, Makhmudova Madinakhon, and Goyipova Nodira. "Theoretical aspects of the development of academic mobility of future speech therapists in dual education." *Asian Journal of Multidimensional Research* 11.12 (2022): 148-154.
22. Dildora, Madinahan Makhmudova Musayeva. "THEORETICAL SIGNIFICANCE OF THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF THE EDUCATOR OF A SPECIAL EDUCATIONAL INSTITUTION ON THE BASIS OF NATIONAL VALUES." *Confrencea* 12.2 (2023): 170-178.
23. Махмудова, Мадинахон Махмудов Хуршид. "Нутқи түлиқ ривожланмаган мактаббача ёшдаги болаларни ёзма нутққа тайёргарлигини шакллантириш муаммолари." *Confrencea* 12.2 (2023): 179-186.
24. Ramazanovna G. D. ROLE OF INNOVATION IN THE SPHERE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES //Archive of Conferences. – 2021. – C. 6-9.
25. Ramazanovna G. D. IMPROVEMENT OF POSITIONS IN INTERNATIONAL RATINGS AS A RESULT OF EFFECTIVE MANAGEMENT OF INNOVATIVE PROCESSES //Archive of Conferences. – 2020. – Т. 10. – №. 1. – С. 183-185.